



**PARATROFIYA FONIDA KECHUVCHI PNEVMONIYADA  
BRONXOOSTRUKTIV SINDROMNING KLINIK XUSUSIYATLARI VA  
KASALLIKNING CHO‘ZILUVCHAN KECHISHI (KLINIK HOLAT)**

*Mallaev Sh.Sh., Fayziev N.N., Egamberdiyev S.B.*

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti,*

*Toshkent, O‘zbekiston.*

***Rezyume***

*Ushbu maqolada paratrofiya fonida kechuvchi pnevmoniyada bronxoobstruktiv sindromning klinik xususiyatlari hamda kasallikning cho‘ziluvchan kechishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganildi. Tadqiqot davomida paratrofiya mavjud bolalarda pnevmoniya ko‘proq bronxoobstruktiv sindrom bilan kechishi, klinik belgilarining og‘irroq va uzoqroq saqlanishi, nafas yetishmovchiligi simptomlari va intoksikatsiya holatlarining yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatildi.*

*Shuningdek, ushbu toifadagi bemorlarda yo‘talning persistensiyasi, ekspirator hansirash, quruq va nam xirillashlarning uzoq muddat auskultativ saqlanishi, rentgenologik o‘zgarishlarning sekin regressiyasi hamda kasallikning qaytalanishga moyilligi qayd etildi. Paratrofiya fonida metabolik jarayonlarning buzilishi, immunologik rezistentlikning pasayishi va mikrotsirkulyator o‘zgarishlar pnevmoniyaning cho‘ziluvchan kechishida muhim patogenetik omil sifatida namoyon bo‘ldi.*

*Kalit so‘zlar: pnevmoniya, paratrofiya, bronxoobstruktiv sindrom, cho‘ziluvchan kechish, erta yoshdagi bolalar, klinik xususiyatlar.*

**Dolzarbligi**

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik sharoitning yomonlashuvi, atmosfera havosining sanoat chiqindilari, transport gazlari va mayda dispers zarrachalar bilan ifloslanishi bolalar nafas tizimi



kasalliklari, xususan pnevmoniya bilan kasallanish ko'rsatkichlarining ortishiga olib kelmoqda. Noqulay ekologik omillar ta'siri erta yoshdagi bolalarda bronx-o'pka tizimining morfofunktsional yetilmaganligi, mahalliy immunitetning sustligi va adaptatsion mexanizmlarning cheklanganligi sababli yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Atmosfera havosidagi zararli moddalarning surunkali inhalyatsiyasi bronxlar shilliq qavatida yallig'lanish jarayonini kuchaytiradi, mukotsiliar klirensni susaytiradi va bronxial giperreaktivlikni oshiradi. Paratrofiya fonida esa immunologik rezistentlikning pasayishi, mikrotsirkulyatsiyaning buzilishi, ventilyatsiya-perfuziya nomutanosibligi va diafragma ekskursiyasining cheklanishi kuzatiladi. Ushbu o'zgarishlar pnevmoniya kechishini og'irlashtirib, bronxoobstruktiv sindromning tez-tez rivojlanishiga, nafas yetishmovchiligining chuqurlashishiga hamda yallig'lanish jarayonining uzoq davom etishiga sabab bo'ladi. Erta yoshdagi bolalarda pnevmoniyaning paratrofiya fonida bronxoobstruktiv sindrom bilan kechishi klinik jihatdan og'irroq, davolashga nisbatan kamroq sezgir va rehabilitatsiya davrining uzayishi bilan xarakterlanadi. Shunga qaramay, ekologik noqulaylik, trofik holat va bronxoobstruktiv o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligi hamda ularning kasallikning cho'ziluvchan kechishiga ta'siri yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Shu bois ekologik omillar ta'siri kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda paratrofiya fonida kechuvchi pnevmoniyada bronxoobstruktiv sindromning klinik xususiyatlarini aniqlash, kasallikning cho'ziluvchan kechish mexanizmlarini baholash va ushbu bemorlar guruhida samarali diagnostik hamda davolash yondashuvlarini takomillashtirish pediatriya va bolalar pulmonologiyasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi** Paratrofiya fonida kechuvchi pnevmoniyada bronxoobstruktiv sindromning klinik xususiyatlarini aniqlash hamda kasallikning cho'ziluvchan kechishiga olib keluvchi asosiy omillarni baholash orqali erta yoshdagi bolalarda diagnostika, prognoz va davolash yondashuvlarini takomillashtirish.



### **Tadqiqot vazifasi**

- Erta yoshdagi bolalarda paratrofiya fonida kechuvchi pnevmoniyaning klinik kechish xususiyatlarini o‘rganish.
- Ushbu bemorlar guruhida bronxoobstruktiv sindromning uchrash chastotasi va klinik namoyon bo‘lish shakllarini aniqlash.
- Bronxoobstruksiya rivojlanishining kasallik og‘irligi, nafas yetishmovchiligi darajasi va asosiy klinik simptomlar bilan bog‘liqligini baholash.
- Paratrofiya fonida pnevmoniyaning cho‘ziluvchan kechishiga ta‘sir etuvchi klinik va anamnestik omillarni aniqlash.
- Kasallikning davomiyligi, auskultativ va rentgenologik o‘zgarishlarning regressiya muddatlarini tahlil qilish.
- Olingan natijalar asosida paratrofiya bilan kechuvchi pnevmoniyada bronxoobstruktiv sindromni erta aniqlash va cho‘ziluvchan kechishni prognozlash mezonlarini ishlab chiqish.

### **Klinik xolat**

Bemor **B Sh A** 6 oyda **20.12.2025** /chiqarilgan: **30.12.2025**

**Tashxis:** Zotiljam kasalxonadan tashqari o‘tkir kechishi, Bronxoobstruktiv sindrom, Nafas yetishmovchiligi I daraja, kamqonlik yengil darajasi, Toksikoz.

Tana haroratini ko‘tarilishi, bezovtalik, holsizlik, kuchli yo‘tal, xansirash, ishtahasizlik bilan ToshDavTU KTK Chaqaloqlar patologiyasi bo‘limiga yotqizilgan.

Bemor 10 kun beri kasal, kasallik tumov, holsizlik, bezovtalik bilan boshlangan. Yo‘tali kuchaygan ambulator pediater tavsiyasiga ko‘ra gropvirin, askoril, parasetamol ichirilgan. Bemorda xansirash, xirillash, yo‘tal, isitma,



ishtahasizlik kuchaygan shu sababli ToshDavTU KTK ga yuborilgan ko'krak qafasi rentgen tekshiruvi qilingan.

Bola 3-homiladorlikdan 3-farzand. Homiladorlik kamqonlik, toksikoz bilan o'tgan. Bola o'z vaqtida 3000gr tug'ilgan. Xozirgi tana vazni 12 kg. Kindigi 7-kuni tushgan. Asoratsiz bitgan. Bola ona suti bilan oziqlangan, va hozirgi vaqtda ham tabiiy ovqatlanitirishda, qo'shimcha ovqat beradi. Profilaktik emlashlarni tug'ruqxonada to'liq olgan. Kalendar bo'yicha to'liq olmagan. O'tkazgan kasalliklari: Zotiljam, O'RK, bronxit, obstruktiv bronxit. Oilada nasliy kasalliklarni inkor etadi. Er va xotin yaqin qarindosh emas.

Bemorning umumiy ahvoli og'ir. Og'irligi intoksikatsiya va bronxoobstruksiya nafas yetishmovchiligi belgilari hisobiga. Tana harorati ko'ruv vaqtida normal. Bola hushi o'zida. Holsiz, ishtaxa past og'iz burun uchburchagi ko'kimtir lablari quruq oqimtir. Terisi toza. Terisi marmarsimon tusda. Teri osti yog' qatlami yaxshi rivojlangan, yo'tali produktiv, bo'g'ilib kuchli yo'taladi tez tez xurujsimon, xansirash BOS hisobiga, burnidan shilimshiq oqadi. Nafas olganda qovurg'alararo mushaklar qatnashadi. Muskullar tonusi o'zgarishsiz. Tili oq karash bilan qoplangan, shilliq qavatlari toza. Murtaqlari qizargan, shishgan. Periferik limfa yagona jag' osti, quloq oldi tugunlari kattalashmagan palpatsiyada og'riqsiz, harakatchan, atrofdagi to'qimalar bilan birikmagan o'lchami 0.4 x 0.5sm. Suyak bo'g'im tizimi bo'g'im harakati cheklanmagan, og'riqsiz, qizarish va shish kuzatilmaydi, deformatsiyalanmagan. Yurak- qon tomir sistemasi: Yurak tonlari bo'g'iqlashgan. Puls ritmik, taxikardiya, shovqin eshitilmaydi. Yurak chegaralari kattalashmagan. Nafas tizimi: Nafas olishi burun og'iz orqali, nafas olganda qo'shimcha mushaklar ishtirok etadi, burun lab atrofida yengil sianoz aniqlandi. Ko'krak qafasi silindirsimon, nafas olishda ikkala o'pka simmetrik qatnashadi. Ko'krak qafasi elastikligi saqlangan, ovoz dirrilashi kuchaygan ikkala o'pkada, perkussiyada o'pka tovushi qisqargan. Yo'tali aralash quruq va nam. Masofadan



nam xirillashlar eshitildi. O'pka auskultatsiyada ikki tomonlama upta va paski bo'laklarda yaqqol quruq va nam xirillashlar eshitildi. Hazm sistemasi: Tili oq karash bilan qoplangan, Ishtahasi juda pas, palpatsiyada qorni yumshoq og'riqsiz, meteorizm belgilari aniqlandi. Jigari Krulov bo'yicha chegaralari +8, +7, +6 sm, qovurg'a ravog'idan +1 sm chiqqan kattalashmagan. Talog'i kattalashmagan. Siyishi erkin og'riqsiz, Pasternatskiy simptomi ikkala tomonda manfiy, siydik rangi sarg'ish, tiniq, o'zgarishsiz. Najasi onasi so'zi bo'yicha o'zgarishsiz. Meningial simptomlari yo'q.

### **Davodan oldin**

► Ko'krak kafasi raqamli rentgenografiyasi tekshiruvda ildiz oldi iltrativ o'zgarishlar

► EKG (6-ta tarmoqda) (21.12.2025) Xulosa: - Sinusli taxiaritmiya YQS 150-166 zarba 1 minda. YEO' o'zgarishsiz. Yurak mushaklarida metabolik o'zgarishlar.

► Qonning biokimyoviy tahlili(21.12.2025): Umumiy oqsil - 84,0 g/l, Glyukoza - 5,2 mmol/l, Mochevina - 5,9 mmol/l, Kreatinin - 89,7 mmol/l, ALT - 26 birlik/l, ACT - 14 birlik /l

► Umumiy siydik tahlili(21.12.2025): Miqdori - 20,0 ml\* Rangi - sariq Tiniqligi - tiniq Nisbiy zichligi - kam Reaksiya - nordon Oqsil - abs g/l\* O't kislotasi - abs Leykotsitlar - 5-6 o'zgarmagan - 0-1

► Najas tahlili(21.12.2025): Neytral yog' - ++ Sovun - ++ Kraxmal - + Leykotsitlar - 2-3

► Qonning umumiy tahlili(21.12.2025): Gemoglobin(HGB) - 92 g/l, Eritrotsitlar (RBS) - 3,1 10/l, Rangli ko'rsatkichlar - 0,9, Leykotsitlar - 6,5, Sigmoid yadroli - 74, Limfotsitlar - 24, Monotsitlar - 2, Eritrotsitning chokish tezligi A - 12

► Qorin bushlig'i a'zolari UTT(21.12.2025): o't pufagi o'lchami 36x13 mm, devorlari va yuzasi normal. Oshqozon osti bezi bosh qismi 11 mm, tana 7 mm, dumi 17 mm. Parenxima exogenligi oshgan, darvoza va jigari venalari normada. Jigar o'ng



bo‘lagi 99 mm, chap bo‘lagi 59 mm. Taloq 64x 28 mm parenxima bir jinsli, taloq venasi 4 mm. O‘ng buyrak 81x36mm, chap buyrak 77x30mm. Siydik pufagi o‘lchami va shakli normal.

**Davodan so‘ng** ► EKG (6-ta tarmoqda) (28.12.2025) Xulosa: - Sinusli ritm YQS 144 zarba 1 minda. O‘ o‘zgarishsiz. Yurak mushaklarida metabolik o‘zgarishlar.

► Qonning biokimyoviy tahlili(28.12.2025): Umumiy oqsil - 84,0 g/l, Glyukoza - 4,8 mmol/l, Mochevina - 4,6 mmol/l, Kreatinin - 84,1 mmol/l, ALT - 22 birlik/l, ACT - 11 birlik/l

► Umumiy siydik tahlili(28.12.2025): Miqdori - 20,0 ml\* Rangi - sariq Tiniqligi - tiniq Nisbiy zichligi - kam Reaksiya - nordon Oqsil - abs g/l\* O‘t kislotasi - abs Leykotsitlar - 2-3 o‘zgarmagan - 0-1

► Najas tahlili(21.12.2025): Neytral yog‘ - ++ Sovun - + Kraxmal - + Leykotsitlar - 1-2

► Qonning umumiy tahlili(28.12.2025): Gemoglobin(HGB) - 98 g/l, Eritrotsitlar (RBS) - 3,5 10/l, Rangli ko‘rsatkichlar - 1,0, Leykotsitlar - 6,5, Sigmoid yadroli – 72, Limfotsitlar – 26, Monotsitlar – 2, Eritrotsitning cho‘kish tezligi A - 8

Sefaperazon sulbaktam 80mg/kg, askorbin kislota, deksametazon, montelukas, salbutamol, namlangan kislalrod.

Klinik belgi	Davomiyligi kun	
	Pnevmoniy a Parotrofiya	Pnevmoniya normal tana vazn
Yo‘tal	15	8
Isitma	7	4
Nafas qisishi	8	5
Xolsizlik	20	10



Ishtaxaning pasayizshi	25	15
Burun bitishi	5	3
Ko'ngil aynishi	3	2
Tomoq og'rig'i	7	4
Gipoksiya	5	3

### Xulosa

Paratrofiya fonida kechuvchi pnevmoniya erta yoshdagi bolalarda bronxoobstruktiv sindromning yuqori chastotada rivojlanishi, klinik belgilarining yaqqol namoyon bo'lishi va kasallikning cho'ziluvchan kechishga moyilligi bilan tavsiflanadi. Paratrofiya mavjud bemorlarda modda almashinuvining buzilishi, immunologik rezistentlikning pasayishi hamda ventilyatsiya-perfuziya munosabatlarining izdan chiqishi bronxial o'tkazuvchanlikning buzilishini kuchaytirib, nafas yetishmovchiligi belgilari chuqurlashishiga olib keladi. Bronxoobstruktiv sindrom bilan kechuvchi pnevmoniyada yo'talning uzoq saqlanishi, ekspirator hansirash, auskultativ o'zgarishlarning persistensiyasi va rentgenologik belgilar regressiyasining sekinlashuvi kasallikning cho'ziluvchan kechishiga xos mezonlar sifatida namoyon bo'ladi. Paratrofiya fonida yallig'lanish jarayonining rezolyutsiya davri uzayishi va qaytalanish xavfining ortishi aniqlanadi.

Ekologik sharoitning yomonlashuvi, atmosfera havosining ifloslanishi va noqulay tashqi omillar bronx-o'pka tizimida surunkali yallig'lanish jarayonini qo'llab-quvvatlab, bronxial giperreaktivlikni oshiradi hamda pnevmoniyaning bronxoobstruktiv va cho'ziluvchan shakllarini rivojlanishiga qo'shimcha zamin yaratadi. Olingan natijalar paratrofiya fonida kechuvchi pnevmoniyada bronxoobstruktiv sindromni erta aniqlash, kasallikning cho'ziluvchan kechishini prognozlash va individual kompleks davolash hamda reabilitatsiya choralari qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv erta yoshdagi bolalarda kasallik davomiyligini qisqartirish, asoratlar rivojlanishini kamaytirish va klinik



samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar

1. Bobomuratov, T. A., Sh, M. S., & Fayziyev, N. N. (2025, February). MOLECULAR GENETIC CHARACTERISTICS OF THE HEMOSTASIS SYSTEM IN CHILDREN WITH PNEUMONIA. In Health Horizon: Congress on Public Health and Biomedical Sciences (Vol. 1, No. 1, pp. 8-8).
2. Akramovich, B. T., Fatxullaevna, N. N., Sabirovna, S. N., Masrurovna, A. M., & Nizomiddinovich, F. N. (2022). Impact of breastfeeding on the physical and somatic development of children. International journal of health sciences, 6(S4), 3505-3511.
3. Bobomuratov, T. A., & Fayziyev, N. N. (2024). ZOTILJAM BILAN OG 'RIGAN KICHIK YOSHLI BOLALARDA GEMOSTAZ TIZIMINING GENETIK JIHATLARI.
4. Bobomuratov, T. A., & Fayziyev, N. N. (2025). PNEVMONIYA BILAN KASALLANGAN ERTA YOSHLI BOLALARDA GEMOSTAZ TIZIMINI BOSHQARUVCHI GENELARNING ROLI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 90(3), 19-28.
5. Bobomuratov, T. A., and Sh Sh Mallayev. "TIZIMLI SKLERODERMIYA VA YUVENIL DERMATOMIOZITNING BIRGALIKDA KECHISHI: KLINIK HOLAT." Modern education and development 38.3 (2025): 193-200.
6. Bobomuratov, T. A., Mallaev Sh Sh, and M. G. Mukhtorov. "INSTRUMENTAL, LABORATORY, AND CLINICAL FEATURES OF JUVENILE IDIOPATHIC ARTHRITIS IN CHILDREN DURING THE POST-COVID-19 PERIOD." Modern education and development 37.4 (2025): 73-82.



7. Bobomuratov, T. A., Nurmatova, N. F., Sultanova, N. S., Mallaev, S. S., & Fayziev, N. N. (2022). Breastfeeding and Genetic Features of Juvenile Rheumatoid Arthritis. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1983-1988.
8. Bobomuratov, T. A., Sh, M. S., Fayziev, N. N., & Egamberdiyev, S. B. (2025). COVID-19 O 'TKAZGAN BOLALARDA SHIFOXONADAN TASHQARI ZOTILJAMNING KLINIK KECHISHI.
9. Bobomuratov, T. A., Sh, M. S., Fayziev, N. N., & Sultanova, N. S. (2025). The Role of Polymorphism of the PAI-1, VEGF Genes Controlling the Hemostasis System in Young Children with Pneumonia.
10. Bobomuratov, T. A., Sh, M. S., SB, F. N. E., & Muxtorov, M. G. (2024). SHIFOXONADAN TASHQARI ZOTILJAM BILAN KASALLANGAN BOLALARDA GEMOSTAZ TIZIMINING OZGARISHLARIDA GEN POLIMORFIZMINING ROLI.
11. GENETIC ASPECTS OF THE HEMOSTATIC SYSTEM IN YOUNG HILDREN WITH PNEUMONIA Turdikul A. Bobomuratov, Nodirbek N. Fayziyev, Nafisa S. Sultanova, Shuxrat Sh. Mallayev, Guloyim S. Avezova *MedForum: International Conference on Patient-Centered Approaches to Medical Intervention 2024 – Dr. Tanima Bhattacharya et al. (eds) © 2024 Taylor & Francis Group, London* Volume 338-342
12. I.A. Karimzhanov, N.K. Tolipova, A.K. Tursunboev, G.A.Yusupova, G.X.Iskanova, N.A.Israilova, K.Z. Yaxyayeva, M.Q. Togayev. Sh.Sh. Mallayev. EFFECTIVENESS OF REFEZO IN INFANTS WITH FUNCTIONAL GASTROINTESTINAL DISORDERS. *The Bioscan*. 2024. 19 (2):S2:155-158.
13. Karimdzhанov I.A Yusupova G.A.Iskanova G.Kh Israilova N.A. Dysbiosis of the Intestine in the Genesis of the Immune Failure in Children with Recurrent Bronchitis. *Eurasian Medical Research Periodical* Volume 18 | March 2023 ISSN: 2795-7624. p 49-54.



14. Karimdzhanov I.A.Yusupova G.A. Iskanova G.Kh. Israilova N.A. Diagnosis of treatment of pneumonia in children. Texas Journal of Medical Science ISSN NO: 2770-2936. P 52-57. 17-04-2023.

15. Mallaev Sh.Sh., Alimov A.V. Clinic - laboratory manifestation of juvenile rheumatoid arthritis // Evroaziyskiy vestnik pediatrii. – 2020. - № 3 – P. 56-60.

16. Mallaev Sh.Sh., Alimov A.V. Clinic - laboratory manifestation of juvenile rheumatoid arthritis // Evroaziyskiy vestnik pediatrii. – 2020. - № 3 – P. 56-60.

17. Mukhtorov, Mallaev Sh Sh Egamberdiev SB. "WAY TREATMENT OF JUVENILE IDIOPATHIC ARTHRITIS WITH GENETIC ENGINEERED BIOLOGICAL DRUGS." (2024).

18. Mukhtorov, Mallayev Sh Sh Egamberdiev SB. "The role of gene polymorphism in the development of juvenile idiopathic arthritis in children." (2024).

19. Mukhtorov, Mallayev Sh Sh Egamberdiev SB. "THE ROLE OF GENE POLYMORPHISM IN THE DEVELOPMENT OF JUVENILE IDIOPATHIC ARTHRITIS IN CHILDREN." British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. Volume-33, October- (2024): 40-45.

20. Muxtorov, M. G., and R. T. Yunusova. "Bolalarda COVID-19 dan keyingi davrda biriktiruvchi to ‘qimaning tizimli kasalliklarining laborator va klinik xususiyatlari." Журнал академических исследований нового Узбекистана 1.6 (2024): 33-35.

21. Muxtorov, M. G., and R. T. Yunusova. "BOLALARDA COVID-19 DAN KEYINGI DAVRDA BIRIKTIRUVCHI TO ‘QIMANING TIZIMLI KASALLIKLARINING LABORATOR VA KLINIK XUSUSIYATLARI." Журнал академических исследований нового Узбекистана 1.6 (2024): 33-35.



22. Muxtorov, Maqsud. "Biriktiruvchi to 'qimaning tizimli kasalliklari bor bolalarda COVID-19 NING UCHRASH chastotasi." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 3.10 (2024): 149-151.

23. Muxtorov, Maqsud. "BIRIKTIRUVCHI TO 'QIMANING TIZIMLI KASALLIKLARI BOR BOLALARDA COVID-19 NING UCHRASH CHASTOTASI." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 3.10 (2024): 149-151.

24. Sh, M. S., Bobomuratov, T. A., Fayziev, N. N., Sultanova, N. S., & Dinmuxammadiyeva, D. R. (2022). Genetic Aspects of Juvenile Rheumatoid Arthritis. ISSN (E), 2795-7624.

25. Sh, M. S., Sultanova, N. S., Avezova, G. S., & Faiziev, N. N. Molecular-Genetic Mechanisms of the Development of Juvenile Idiopathic Arthritis in Children. Texas Journal of Medical Science.–2023, 31-34.

26. Sh, Mallaev Sh, et al. "Molecular-Genetic Mechanisms of the Development of Juvenile Idiopathic Arthritis in Children." (2023).

27. Sh, Mallaev Sh. "BOLALARDA COVID-19 DAN KEYINGI DAVRDA YUVENIL IDIOPATIK ARTRITNING INSTRUMENTAL, LABORATOR VA KLINIK XUSUSIYATLARI." Лучшие интеллектуальные исследования 56.2 (2025): 175-184.

28. Sultanova, N. S., & Avezova, G. S. Mallaev Sh. Sh., Fayziyev NN Comprehensive characteristics of the state of health of children in different age periods, depending on the types of feeding and care. British Medical, 3(2), 109-113.

29. Sultanova, N. S., Bobomuratov, T. A., Mallaev, S. S., & Xoshimov, A. A. (2022). THE ROLE OF BREASTFEEDING IN THE PSYCHO-SOCIAL ADAPTATION OF CHILDREN IN SOCIETY. British Medical Journal, 2(6).

30. Sultanova, N. S., Sh, A. G. M. S., & Fayziyev, N. N. (2023). Comprehensive characteristics of the state of health of children in different age



periods, depending on the types of feeding and care. British Medical Journal, 3(2).

31. U.I. Zakirova<sup>1</sup>, N.A. Israilova, U.N. Karimova, G.A. Yusupova, and A.S. Gaziyeva. Variability of the pharmacological response in children with different adrb2 gene polymorphisms in recurrent bronchial obstruction and bronchial asthma. BIO Web of Conferences 65, 05011 (2023). P.1-8.  
[/doi.org/10.1051/bioconf/20236505011](https://doi.org/10.1051/bioconf/20236505011).

32. Алимов, А. В., Маллаев, Ш. Ш., Файзиев, Н. Н., & Эгамбердиев, С. Б. (2024). КЛИНИЧЕСКИЕ, ИММУНОЛОГИЧЕСКИЕ И ГЕНЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЮВЕНИЛЬНОГО ИДИОПАТИЧЕСКОГО АРТРИТА У ДЕТЕЙ.

33. Алимов, А. В., Маллаев, Ш. Ш., Файзиев, Н. Н., & Эгамбердиев, С. Б. (2024). КЛИНИЧЕСКИЕ, ИММУНОЛОГИЧЕСКИЕ И ГЕНЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЮВЕНИЛЬНОГО ИДИОПАТИЧЕСКОГО АРТРИТА У ДЕТЕЙ.

34. Бобомуратов, Т. А., Маллаев, Ш. Ш., & Файзиев, Н. Н. (2025). ГЕНЕТИЧЕСКИЕ ПОЛИМОРФИЗМЫ ГЕНА VEGFA\_C936T У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА, БОЛЬНЫХ ПНЕВМОНИЯМИ.

35. Бобомуратов, Т. А., Маллаев, Ш. Ш., & Файзиев, Н. Н. (2025). ГЕНЕТИЧЕСКИЕ ПОЛИМОРФИЗМЫ ГЕНА VEGFA\_C936T У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА, БОЛЬНЫХ ПНЕВМОНИЯМИ.

36. Бобомуратов, Т. А., Маллаев, Ш. Ш., Файзиев, Н. Н., & Ходжаниёзова, М. Ю. (2025). ОСОБЕННОСТИ ПОЛИМОРФИЗМА ГЕНОВ, РЕГУЛИРУЮЩИХ СИСТЕМУ ГЕМОСТАЗА У ДЕТЕЙ БОЛЬНЫХ С ПНЕВМОНИЕЙ. Лучшие интеллектуальные исследования, 58(5), 297-309.



37. Бобомуратов, Т. А., Маллаев, Ш. Ш., Файзиев, Н. Н., Эгамбердиев, С. Б., & Мухторов, М. Г. (2024). Роль генетического полиморфизма RA1-1 в тяжелом течении внебольничной пневмонии.

38. Бобомуратов, Т. А., Н. Н. Файзиев, and Ш. Ш. Маллаев. "Коронавирусные инфекции у детей, клинические особенности, диагностики, лечения у детей." Вестник Ташкентской медицинской академии 5 (2022): 21-23.

39. Бобомуратов, Т. А., Султанова, Н. С., Бакирова, М. А., & Самадов, А. (2021). Соматический статус детей в зависимости от вида вскармливания и принципов ухода до пубертатного возраста. Электронный инновационный вестник, (1), 37-38

40. Бобомуратов, Т. А., Файзиев, Н. Н., & Маллаев, Ш. Ш. (2022). Коронавирусные инфекции у детей, клинические особенности, диагностики, лечения у детей. Вестник Ташкентской медицинской академии, 5, 21-23.

41. Герасимова, Е. В., Попкова Т.В. Функциональные нарушения макрофагов при ревматоидном артрите и атеросклерозе,. // Научнопрактическая ревматология. – 2018. – Т.56. – №4. – С. 486-493.

42. Каримджанов И.А., Динмухаммадиева Д.Р., Исканова Г.Х., Юсупова Г.А., Маллаев Ш.Ш., Мадаминова М.Ш. Ювенильный идиопатический артрит и остеохондроз пояснично-крестцового сустава. Клинический случай. Евразийский Вестник педиатрии 3(14) 2022, с.26-30.

43. Каримжанов И.А., Юсупова Г.А., Исканова Г.Х., Исраилова Н.А. Артериальная гипертензии как фактор риска развития хронической болезни почек у детей с врожденными аномалиями почек и мочевыводящих путей ВАПМП/САКУТ и ее коррекция. Нефрология. ТОМ 28; № 1; 2024; стр. 43-49.



44. Каримжанов И.А., Юсупова Г.А., Исканова Г.Х., Исраилова Н.А. Артериальная гипертензии как фактор риска развития хронической болезни почек у детей с врожденными аномалиями почек и мочевыводящих путей ВАПМП/САКУТ и ее коррекция. Нефрология. ТОМ 28; № 1; 2024; стр. 43-49.

45. Кароматов, И. Д., Ражабова, Г. Х., & Файзиев, Н. (2017). Магнолия крупноцветная. Биология и интегративная медицина, (8), 91-113.

46. Маллаев Ш.Ш, А.В Алимов Сравнительная эффективность традиционной терапии и хронотерапии в лечении ювенильного ревматоидного артрита. // Новый день в медицине – 2020. – Т .1. №1 – С . 258-262.

47. Маллаев Ш.Ш, А.В Алимов. Клиническое течение ювенильного ревматоидного артрита и его оптимизация лечения // журнал «Педиатрия» №2 Ташкент 2020. С. 200-203.

48. Маллаев Ш.Ш. Обоснование хронофармакологического подхода к лечению диффузных болезни соединительной ткани у детей // Межвузовского научного конгресса «Высшая школа: научные исследования» Москва, 2020. – С. 66 -67.

49. Маллаев Ш.Ш. Обоснование хронофармакологического подхода к лечению диффузных болезни соединительной ткани у детей // Межвузовского научного конгресса «Высшая школа: научные исследования» Москва, 2020. – С. 66 -67.

50. Маллаев Ш.Ш. Современные особенности течения клинических вариантов ювенильного ревматоидного артрита // Межвузовского научного конгресса «Высшая школа: научные исследования» Москва, 2020. – С. 64 -65.

51. Маллаев Ш.Ш. Современные особенности течения клинических вариантов ювенильного ревматоидного артрита // Межвузовского научного



конгресса «Высшая школа: научные исследования» Москва, 2020. – С. 64 - 65.

52. Маллаев Ш.Ш., Алимов А.В. Clinical course of juvenile rheumatoid arthritis and its treatment optimization // Тиббиётда янги кун. – 2020. - №4 (32). – С. 68 -71. (14.00.00. - №22).

53. Маллаев Ш.Ш., Алимов А.В. Clinical course of juvenile rheumatoid arthritis and its treatment optimization // Тиббиётда янги кун. – 2020. - №4 (32). – С. 68 -71. (14.00.00. - №22).

54. Маллаев Ш.Ш., Алимов А.В. Новые подходы к лечению ювенильного ревматоидного артрита // Сборник статей по материалам XXXI международной научно-практической конференции № 2 (62) Москва 2020. – С. 18-22.

55. Маллаев, Ш. Ш., & Алимов, А. В. (2020). Новые подходы к лечению ювенильного ревматоидного артрита. In ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ (pp. 18-22).

56. Маллаев, Ш. Ш., Файзиев, Н. Н., & Мухторов, М. Г. (2024). ОПТИМИЗАЦИЯ ЛЕЧЕНИЯ ЮВЕНИЛЬНОГО ИДИОПАТИЧЕСКОГО АРТРИТА БИОЛОГИЧЕСКИМИ ПРЕПАРАТАМИ.

57. Маллаев, Ш. Ш., Файзиев, Н. Н., Эгамбердиев, С. Б., & Мухторов, М. Г. (2024). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ГЕННО-ИНЖЕНЕРНЫХ БИОПРЕПАРАТОВ В ЛЕЧЕНИИ ЮВЕНИЛЬНОГО ИДИОПАТИЧЕСКОГО АРТРИТА У ДЕТЕЙ.

58. Мухторов, М. Г. "Современные принципы терапевтической тактики при ювенильном ревматоидном артрите у детей." Молодежь, наука, медицина. 2019.

59. Файзиев, Н. Н., & Тиллаева, Ш. Ш. (2017). ИССЛЕДОВАНИЕ РЕВМАТОИДНОГО АРТРИТА У ПАЦИЕНТОВ СТАРШИХ



ВОЗРАСТНЫХ ГРУПП. In Актуальные вопросы современной медицины (pp. 196-197).

60. Файзиев, Н. Н., Маллаев, Ш. Ш., Султанова, Н. С., & Бобомуратов, Т. А. (2023). Изменения в системе гемостаза у детей с пневмонией и оптимизация их лечения. *Academic research in educational sciences*, (1), 180-187.

61. Файзиев, Н. Н., Маллаев, Ш. Ш., Султанова, Н. С., & Бобомуратов, Т. А. (2023). Изменения в системе гемостаза у детей с пневмонией и оптимизация их лечения. *Academic research in educational sciences*, (1), 180-187.

62. Ш.Ш Маллаев, А.В Алимов Сравнительная эффективность традиционной терапии и хронотерапии в лечении ювенильного ревматоидного артрита. // Новый день в медицине – 2020. – Т .1. №1 – С . 258-262.

63. Ш.Ш Маллаев, А.В Алимов. Клиническое течение ювенильного ревматоидного артрита и его оптимизация лечения // журнал «Педиатрия» №2 Ташкент 2020. С. 200-203.

64. Юсупова Г.А. RISK FACTORS FOR THE OCCURRENCE AND DEVELOPMENT OF RECURRENT BRONCHITIS IN CHILDREN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ)* Индия. ISSN (E): 2347-6915 Vol. 11, Issue 12, December (2023).